

**O'zbekiston**  
**Metama'lumot**  
**Ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot**

**0. Asoslar**

**0.1 Qonuniy muhit**

**0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik**

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Davlat statistika qo'mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o'rgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan yangi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo'mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul va ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo'mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma'muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o'z vakolatlari doirasida boshqa organlardan talab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentyabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig'iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT) doirasiga to'g'ri keladigan va muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

2019 yilning aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4273-sonli qarori tasdiqlandi, ushbu qaror bilan Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati tarkibida O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalidagi ro'yxatni shakllantirish, yuritish va yangilash bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq ishlar uchun mas'ul bo'linma tashkil etildi.

**0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlari hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshitalishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### **0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdir. Bundan tashqari 2017 yil sentyabrda 690-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham. Shu bilan birga, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

#### **0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish**

### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini ta‘minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma‘lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o‘z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni so‘rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma‘lumotlarining ishonchligini tekshiradi, olingan statistik ma‘lumotlarni to‘liqligi ob‘ektivligini ekspertizadan o‘tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to‘g‘rilash uchun zarur ko‘rsatmalar beradi va statistika ma‘lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasining Joriy hisoblar bo‘limida 7 nafar xodim ishlaydi.

Milliy hisoblar metodologiyasi bo‘yicha xodimlarni o‘qitish doimiy ravishda olib boriladi. Boshqarma xodimlari quyidagi o‘quv kurslarida o‘z malakalarini oshiradilar:

- Davlat statistika qo‘mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida;

- Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan Birlashgan Vena instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan o‘quv kurslarida, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlarining boshqa seminarlarida;

- Osiyo va Tinch okeani statistika instituti va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan onlayn kurslarda.

Bo‘limda kompyuterlar soni yetarlicha bo‘lib, har bir xodim o‘zining kompyuterida ishlaydi. Barcha kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan, shuningdek, internetga kirish imkoniga ega.

Moliyaviy mablag‘lar Davlat statistika ishlari dasturi doirasida taqdim etiladi va Dasturda nazarda tutilgan statistika ishlarini bajarish, shuningdek, yangilangan "Milliy hisoblar tizimi - 2008" qo‘llanmasini statistika amaliyotiga joriy etish bo‘yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yetarlidir.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg‘arazlikdir. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomi”da (13-modda) Davlat statistika qo‘mitasining prinsiplari beg‘arazlikni ta‘minlashi belgilangan.

### 1.1. Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

### 1.1.3 Statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

### 1.2 Shaffoflik

#### 1.2.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonun (2002 yil) va Qo‘mitaning 368-sonli qarori veb-saytga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

#### 1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin

ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Davlat statistikasi to'g'risidagi" qonunning 5-moddasi). Faqat qo'mita Raisi statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma'lumotlarni belgilash

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

### 1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

## 1.3. Axloq me'yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Metodologiya

### 2.1 Konsepsiya va ta'riflar

#### 2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash MHT-1993 qo'llanmasida tavsiya etilgan tushunchalar va ta'riflardan kelib chiqqan holda, yillik va choraklik davriylikda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda MHT-2008 yangi qo'llanmasini statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblashning uslubiy asoslari bo'lib "YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" (Davlat statistika qo'mitasining 2016 yil 29 iyundagi 9-son qarori) hisoblanadi.

### 2.2 Statistik qamrov

#### 2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

##### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududining barcha rezident birliklarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qamrab oladi. Iqtisodiyotning norasmiy sektori bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni baholash o'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarishini qo'shib, "yashirin" iqtisodiyot va noqonuniy faoliyat ko'rsatkichlarini qo'shmagan holda amalga oshiriladi.

YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiyot sektorlari kesimida amalga oshiriladi.

### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnalar

Istisnalar yo'q.

### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Iqtisodiyotning norasmiy sektori bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni baholash "yashirin" iqtisodiyot va noqonuniy faoliyat ko'rsatkichlarini qo'shmagan holda amalga oshiriladi.

## 2.3 Klassifikatsiya/sektorlar bo'yicha bo'lish

### 2.3.1 Klassifikatsiya/sektorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblashda milliy iqtisodiyotning quyidagi sektorlari ajratib ko'rsatiladi: nomoliyaviy korporatsiyalar, moliyaviy korporatsiyalar, davlat boshqaruvi, uy xo'jaliklari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar.

YaIMni ishlab chiqarish usulida tarmoqlar kesimida baholash uchun iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)dan foydalaniladi.

## 2.4 Hisobga olish asosi

### 2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Oqimlar va zahiralarni hisobga olishda foydalaniladigan qiymatni baholash qoidalari to'laligicha MHT-2008 tahririyatiga mos keladi:

- Bozor mahsulotlarining qiymati asosiy baholarda aks ettiriladi;
- O'z iste'moli uchun mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bozor baholariga tenglashtirilgan narxlarda baholanadi;
- Xorijiy valyutadagi operatsiyalar bozorda jarayonni amalga oshirish vaqtidagi o'rtacha almashinuv kursi orqali qayta hisoblanadi;

- MHTda iqtisodiy operatsiyalarni hisobga olish, asosan, operatsiyalarning amalga oshirish jarayonidagi hisoblangan narxlar (joriy narxlar) asosida amalga oshiriladi;

- Nobozor tovarlar va xizmatlarni baholashda, agarda ularning bozor narxlari ma'lum bo'lmasa, ishlab chiqarishga xarajatlari orqali yoki shu kabi tovarlar va xizmatlar uchun qo'llash mumkin bo'lgan bozor narxlaridan foydalangan holda baholanadi. Xususan, davlat boshqaruv xizmatlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar xizmatlari ishlab chiqarish xarajatlarini baholash orqali hisoblanadi.

#### 2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Operatsiyalar va oqimlar MHT tamoyillariga muvofiq hisoblash usuli yordamida hisoblanadi. Davlat boshqaruvi sektori bo'yicha ma'lumotlar kassa xarajatlari usulida hisoblanadi.

#### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

YaIM yalpi asosda hisoblanadi, ya'ni yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish va oraliq iste'mol ayirmasiga teng. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati asosiy kapitalning iste'molini qo'shgan holda hisoblanadi.

### 3. Aniqlilik va ishonchlik

#### 3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

##### 3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Ishlab chiqarish usulida YaIMni baholash uchun ma'lumotlar manbai bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi: iqtisodiy faoliyat turlarining qisqa muddatli kuzatuvlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlari, uy xo'jaliklari budjeti kuzatuvlari, korxonalar va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari, shuningdek, davlat budjetining ijrosi to'g'risida, bojxona va soliq organlari, budjetdan tashqari jamg'armalarning moliyaviy ko'rsatkichlari, Markaziy bank va boshqalarning ma'muriy ma'lumotlari.

Choraklik statistik ma'lumotlar yirik korxonalarning to'liq hajmda statistik hisobotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Choraklik va yillik baholashni amalga oshirishda hisobot davriga mos bo'lgan davlat statistika kuzatuvlari va korxonalarning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

##### 3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Birlamchi ma'lumotlar YaIMning ta'riflariga, statistik qamroviga va tasnifiga, hamda hisobga olish vaqti, hisobot davri va baholash tamoyillariga to'la mos keladi. Ishlab chiqarish usulida YaIMni hisoblash uchun zarur ma'lumotlarni olish maqsadida YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash talablarini hisobga olgan holda davlat statistika kuzatuv shakllari muntazam ravishda ko'rib chiqiladi.

### 3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Boshlang'ich ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarida o'z vaqtida taqdim etib boriladi.

## 3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

### 3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblashda boshlan'gich ma'lumotlar manbai sifatida quyidagilardan foydalaniladi: yuridik shaxslarning (korxonalar va tashkilotlar) davlat statistika kuzatuv ma'lumotlari, davlat statistika ishlari dasturida ko'zda tutilgan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha norasmiy sektorni muntazam kuzatish natijalari, uy xo'jaliklari budjetining tanlanma kuzatuvlari, Moliya vazirligining Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlari, Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari, Davlat bojxona qo'mitasining ma'lumotlari, Markaziy bankning ma'lumotlari va boshqa ma'muriy manbalar.

## 3.3 Statistika usullari

### 3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Doimiy narxlarda hisoblash usullari.

YaIM tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblash ikki asosiy usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi:

- joriy narxlardagi hisobot davri ma'lumotlarini mos narxlar indeksi orqali deflyatsiya qilish;

- joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri ma'lumotlarini fizik hajm indeksi yoki ushbu iqtisodiy faoliyat turining rivojlanish sur'atlarini mantiqan to'g'ri ifodalovchi natural indikatorlar orqali ekstrapolyatsiya qilish.

Ayrim hollarda ko'rsatkichlarni doimiy narxlarda hisoblashning to'g'ridan-to'g'ri qayta baholash usuli ham qo'llaniladi, bu usul hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini o'tgan yilning mos davri narxlariga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi.

YaIM tarkibiy qismlarini hisoblashda asosan deflyatsiya usulidan foydalaniladi, mos narxlar indeksi mavjud bo'lmagan hollarda ekstrapolyatsiya qilish usuli



qo'llaniladi.

YaIMning tarkibiy qismlari jamlangan qiymatlar bo'lganligi sababli, ularni baholash usullari yuqorida aytib o'tilgan usullar birikmasidan iborat bo'ladi.

### 3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yillik va choraklik YaIMni ishlab chiqarish usulida baholashda qonun bilan taqiqlangan faoliyatlar baholanmaydi. Norasmiy faoliyatni maxsus tadqiqotlar, ma'muriy ma'lumotlar va uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida baholanadi.

### 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

#### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ayrim ma'lumotlar manbalari keskin farq qiluvchi qiymatlar bor yoki yo'qligi tekshirib boriladi. Keskin farq qiluvchi qiymatlar aniqlanganda milliy hisoblarni shakllantiruvchi xodimlar tegishli bo'linmalarga ma'lumotlarni tekshirish uchun murojaat qiladilar. Dastlabki ma'lumotlar tahlil qilinadi va dinamik mosligi tekshiriladi.

#### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Asosiy oraliq ma'lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan farqlar tahlil qilib boriladi va bu farqlarni bartaraf etish uchun moslashtirish ishlari amalga oshiriladi. Xususan, quyidagi koeffitsientlar ehtiyotkorlik bilan tekshiriladi: oraliq iste'mol / ishlab chiqarish, yalpi qo'shilgan qiymat / ishlab chiqarish. Bundan tashqari, faoliyat turlari kesimida qo'shilgan qiymatning tarkibi xronologik mosligi tekshiriladi.

#### 3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

YaIMni ishlab chiqarish va xarajatlar (yakuniy iste'mol) usullari orasidagi statistik tafovutlar aniq ko'rsatilib o'tiladi. YaIMni baholashdagi tafovutlar tahlil qilinadi.

### 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

#### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

YaIM ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturida aks etadi. YaIMni yillik (dastlabki) baholash hisobot yili

yakunlangandan so'ng 1 oydan keyin taqdim etiladi. YaIMni ushbu baholanishi hisobot yilidan keyin 11 oydan so'ng yillik statistik hisobot ma'lumotlari asosida qayta ishlanadi.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

YaIM choraklik va yillik davriyliklarda shakllantiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

YaIMni choraklik dastlabki baholash hisobot choragidan bir oy keyin shakllantiriladi.

YaIMni choraklik dastlabki baholashni qayta baholash 12 oydan so'ng.

YaIMni yillik yakuniy baholash 11 oydan so'ng.

### 4.2 Qiyosiylik

#### 4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

YaIMni ishlab chiqarish va xarajatlar (yakuniy iste'mol) usullari orasidagi statistik tafovutlar aniq ko'rsatilib o'tiladi. YaIMni baholashdagi tafovutlar tahlil qilinadi.

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

YaIMni 1991 yildan boshlab yillik hisob-kitoblari hamda 2000 yildan boshlab choraklik hisob-kitoblari mavjud. YaIM 1991-1993 yillar rublda, 1994 yildan so'mda ifodalangan. 2016 yil I chorakdan boshlab YaIM IFUT-2 ga asoslangan holda baholanadi. IFUT-2 tarkibi bo'yicha yillik YaIM 2010 yildan boshlab qayta hisoblab chiqilgan.

2010 yildan boshlab ma'lumotlar qishloq xo'jaligini hisobga olish uslubiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta hisoblab chiqilgan.

#### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

YaIM ma'lumotlari davlat moliyasi statistikasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Markaziy bank va tarmoqlar statistikasi ma'lumotlari bilan mos keladi.

### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

#### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish davri oldindan belgilab boriladi va yildan yilga barqarorlashib boradi. YaIM ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqish tartibi har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturida aks etadi.

#### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Nashr qilinganda dastlabki ma'lumotlar belgilanadi va zaruriyatga qarab, ularga izoh beriladi.

#### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi nashrlari va rasmiy veb-sayti orqali taqdim etiladi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Choraklik va yillik ma'lumotlar foydalanuvchilarga «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari», «O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami», «O'zbekiston raqamlarda» va boshqa statistik to'plamlar, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining <http://www.stat.uz> nomli rasmiy saytida press-revizlar va jadvallar ko'rinishida nashr qilish orqali taqdim etiladi.

YaIM ko'rsatkichlari, o'sish sur'atlari va tarmoqlarning ulushlari tushunarli ko'rinishda grafiklar, jadvallar, qisqacha tahliliy sharhlar bilan nashr etiladi. Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM batafsil nashr etiladi.

Nashrlarda ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish uchun asosiy ko'rsatkichlarga metodologik tushuntirishlar beriladi, bundan tashqari, veb-saytda statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va ularni hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar joylashtiriladi. Nashrlar va veb-saytlardagi ma'lumotlarni solishtirish uchun jadvallar va grafiklar shaklida bir nechta davrlar uchun indikatorlar keltiriladi.

Statistik ma'lumotlarni nashr etilishi muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturida aks ettiriladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

##### 5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati» (har chorakda), «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» (ikki yilda bir marta), «O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami» (ikki yilda bir marta), «O'zbekiston raqamlarda» (yilda bir marta) nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga taqdim etib boriladi. Bundan tashqari, ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar jadvallar, grafiklar va diagrammalar shaklida qisqa tahliliy sharhlar bilan nashr etiladi.

#### 5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Har chorakda «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati» nashri taqdim etiladi, bundan tashqari statistik ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

#### 5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Yillik ma'lumotlar «O'zbekiston raqamlarda» (yilda bir marta), «O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami» (ikki yilda bir marta), «O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblari» (ikki yilda bir marta), nashrlari orqali, bundan tashqari, davlat boshqaruvi organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan kelishilgan jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytida statistik ma'lumotlar - elektron jadvallar ko'rinishidagi dinamik qatorlar, press-revizlar har chorakda joylashtiriladi va muntazam yangilanadi, shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari» taqdim etiladi. Shuningdek, ma'lumotlar XVJning kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (k-MTUT) doirasida O'zbekistonning yig'ma ma'lumotlar milliy sahifasida joylashtiriladi.

### 5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Choraklik va yillik ma'lumotlar davlat boshqaruv organlariga va boshqa foydalanuvchilarga ularning talablariga binoan elektron jadvallar ko'rinishida taqdim etib boriladi.

### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom, Statistik axborotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik yoki jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadval ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi axborot almashinuvi to'g'risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar to'g'risidagi konsepsiyalar, statistik qamrovlar, tasniflar, hisoblash asoslari, ma'lumotlar manbalari va statistik usullar tarqatiladigan statistik to'plamlarda YaIM ko'rsatkichlariga uslubiy tushuntirishlar ko'rinishida o'z aksini topadi. Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIMni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomlar veb-saytga joylashtiriladi.

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejalari – Oxirgi takomillashtirishlar

IFUT-2 statistik amalyotga joriy etildi.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

MHT-2008 ni yangi qoidalarini amaliyotga joriy etish;  
Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIMni sof choraklar bo'yicha doimiy narxlarda baholashni takomillashtirish.

## 9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O'rta muddatlilari

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olishni takomillashtirish.

## 9.3 Moliyaviy

### 9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

MHT-2008 ga muvofiq makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashni takomillashtirish uchun texnik yordam ko'rsatish talab qilinadi.

### 9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O'rta muddatli

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olishni takomillashtirish uchun texnik yordam ko'rsatish talab qilinadi.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

Aloqa bog'lash uchun shaxs 1			
F.I.O.:	Mamirov	Aziz	Otaxonovich
Lavozim:	Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasining boshlig'i		
Bo'linma:			
Bo'lim:			
Departament:			
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi		
Manzil (1 satr):	Mustaqillik 63		
Manzil (2 satr):			
Shahar/region:	Toshkent		
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi		
Pochta indeksi:			
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998	71	2308028
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998	71	2308022
Elektron manzil:	a.mamirov@stat.uz		
Aloqa bog'lash uchun shaxs 2			
F.I.O.:	Mamadja	Abrorali	Ashiraliyevich
Lavozim:	Makroiqtisodiy indikatorlarni shakllantirish va tahlil etish bo'limi boshlig'i		
Bo'linma:			
Bo'lim:			
Departament:			
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi		
Manzil (1 satr):	Mustaqillik 63		
Manzil (2 satr):			
Shahar/region:	Toshkent		
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi		
Pochta indeksi:			
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998	71	2308030
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998	71	2308022
Elektron manzil:	a.mamadjanov@stat.uz		